

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING KELAJAGI

*Xayrullayev Ne'matulla**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*xayrullayevnemat68@gmail.com**Annotatsiya**

Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot va uning kelajagi mavzusini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, elektron tijorat va blockchain texnologiyalari kabi mavzularga oid ilmiy ishlar yordamida o'rganildi. Shuningdek, OECD, Brynjolfsson va McAfee, Schwab, Tapscott va Varian kabi manbalar asosida mavzu tahliliy, qiyosiy va taqqoslash usullari orqali ko'rib chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy samaradorlikni oshirgan holda, yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Elektron tijorat, sun'iy intellekt kabi sohalar afzalliklari iqtisodiyotga qo'l kelayotgan bir paytda kiberxavfsizlik kabi global muammolar haligacha saqlanib qolmoqda.

Kalit so'zlar:

Raqamli iqtisodiyot, blockchain texnologiyasi, sun'iy intellekt, elektron tijorat, kiberxavfsizlik.

Kirish

Hozirgi davr texnologiyalar davri bo'lib, bu texnologiyalar ko'plab sohalarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Jumladan, iqtisodiyot sohasiga ham ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi va natijada raqamli iqtisodiyot vujudga keldi. Raqamli iqtisodiyot – iqtisodiyotni raqamlashtirilishi, avtomatlashtirilishi ya'ni iqtisodiy jarayonlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida borishidir.

Bugungi kunda xalqaro maydonda va har bir mamlakatda ko'plab kompaniyalar, tashkilotlar va jamiyatlar raqamli iqtisodiyotning ko'plab ijobiy tomonlaridan keng ko'lamda foydalanishmoqda. Biroq, raqamli iqtisodiyotni joriy etish bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning mazmun va mohiyati, uning afzalliklari va muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, kelgusida ham raqamli iqtisodiyotning qanday ta'sirlari borligida ma'lumotlar va tahlillarni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili

Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha dunyo bo'ylab bir qator o'tkazilgan ilmiy ishlar, tadqiqotlar mavjud. Brynjolfsson va McAfee (2014) ¹ tadqiqotida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotda, ayniqsa iqtisodiy unumdorlikni oshirishda muhim kasb etishini tadqiq qilishadi. Ularning tadqiqotiga ko'ra, iqtisodiyotda avtomatlashtirish bir qancha tizimlarda mavjud ish o'rinlarini qisqartirishga olib keladi, lekin yangi raqamlashtirishga doir kasblarni yaratilishiga sabab bo'ladi. Bu masalani tadqiqodchilar AQSH iqtisodiyotida avtomatlashtirish, yangi texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan texnologiyalar AQSHning mehnat bozoriga qanday ta'sir qilishi o'rganilgan. Ularning fikricha, bu texnologiyalar rivojlanishi va ularning iqtisodiga ta'siri oqibatida o'rta malakali ishlar qisqarishi va yuqori malakali kasblarga talab ortishi aniqlangan.

Shuningdek, Varian (2018) ² sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'siri chuqur o'rganiladi. Uning tadqiqotiga ko'ra, AI texnologiyalari va xizmatlaridan foydalanish AQSH va Buyuk Britaniya misolida tadqiq qilingan. Xususan, ularda bank sektori AI yordamida kreditga oid ma'lumotlarni hal qilishda va ba'zi moliyaviy firibgarliklarni fosh etishda yaxshi natijalar qayd etgan. Bundan tashqari, iqtisodiyotda ko'plab rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llaniladigan blockchain texnologiyasi ham

¹Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company.

²Varian, H. (2018). Artificial Intelligence, Economics, and Industrial Organization. National Bureau of Economic Research.

raqamlashtirishning ijobiy afzalliklaridan biridir. Blockchain texnologiyasi – moliyaviy tranzaksiyalarni shaffof va xavfsiz bo'lishi uchun qo'llaniladigan texnologiya. Bitcoin, ethereum kabi kriptovalyutalar blockchain tizimi asosida ishlaydi. Tapscott D. va Tapscott A. (2016)³ blockchain texnologiyalarining jahon iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganib, Estoniya va Shveysariya tajribasini misol qilib keltirgan. Shu bilan birga bu texnologiyani qay tartibda ishlashi va ta'sirlari borasida Schwab (2016)⁴ sanoat to'rtinchi inqilobi kitobi va tahlillarida ham keltirilgan.

OECD (2021) "Raqamli iqtisodiyot ko'rinishi" ⁵hisobotida keltirilgan muhim tadqiqot obyektlaridan biri bu – elektron tijoratdir. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy va AQSHda bu soha juda tez rivojlanmoqda va misol qilib Alibaba va Amazon keltirilgan. Jumladan, hozirda va kelajakda kiberxavfsizlik tahdidlari ortishi ham keltirilgan. Chunki, kiberhujumlar global iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik va xavfsizlik masalalarida xavf tug'dirmoqda.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot raqamli iqtisodiyot va uning kelajagi mavzusida tahliliy usul va keltirilgan manbalar, dalillar orqali taqqoslash usullari yordamida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyotni iqtisodiyot yaxshilanishiga qay darajada hissa qo'shayotganini va o'z navbatida keltirib chiqarayotgan muammolarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdir.

Natijalar va Muhokama


Tadqiqot va tahlil natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot hozirgi zamonaviy iqtisodiyotning asosiligi ko'plab omillarga asosan isbotlangan. Sababi, iqtisodiyotga texnologiyalar kirib kelganidan keyin avval ko'proq mablag', ishchi kuchi va vaqt talab qilgan bir qancha tarmoqlar masalan, sanoat ishlari va boshqalar tezroq

³ Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin.

⁴ Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.

⁵ OECD (2021). Digital Economy Outlook 2021.

rivojlandi. Avtomatlashtirilgan texnologiyalar, AI orqali ko'plab yutuqlarga erishildi. Masalan, e-commerce, elektron tijorat degan sohaning paydo bo'lishi masofaviy iqtisodiy foydaga yetaklaydigan bozorning vujudga kelishiga, tezda bir qancha undan foydalanayotgan rivojlangan mamlakatlar iqtisodiga sezilarli ta'sir ko'rsatishiga olib keldi. Misol qilib, OECD (2021) "Raqamli iqtisodiyot ko'rinishi" tahlillariga ko'ra birgina elektron tijoratda AQSH va Xitoyning ulushi 60%dan ortiqni tashkil etishini bilib olishimiz mumkin. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda biroq, uning ulushi iqtisodiyotda boshqalaridan ustunroq ekanini quyidagi jadvaldan bilishimiz mumkin.



Source [McKinsey \(2017\)](#)

1-rasm. "AI aware C" tashkilotiga a'zo rahbarlar orasida ularning kompaniyasida AI ga bog'liq texnologiyalarni ishlatilishi bo'yicha so'rovnoma. Manba. Varian, H. (2018). Artificial Intelligence, Economics, and Industrial Organization. National Bureau of Economic Research.

Ushbu jadvalda "AI aware C" tashkilotiga a'zo turli sohadagi kompaniyalarning AIga bog'liq texnologiyalari miqdori keltirilgan. Shu orqali ham ko'rinib turibdiki, telekommunikatsiya va texnologiya, energetika kabi tarmoqlarda AI ga bog'liq texnologiyalardan ko'proq foydalanilgan. Ya'ni iqtisod sohasiga bevosita ta'sir

qiluvchi sohalarda AI texnologiyalaridan ko'proq foydalanish kuzatilgani raqamli iqtisodiyotning ta'siri muhimligini ko'rsatadi.

Biroq shuni aytish joizki, kiberxavfsizlik tahdidlari darajasi ham so'nggi yillarda oshib bormoqda. Bu esa raqamli iqtisodiyotning salbiy tomonlaridan biri bo'lib qolaveradi. Bundan tashqari iqtisodiyotning avtomatlashtirilishi oqibatida ba'zi davlatlar bilan boshqalariga nisbatan raqamli tafovut yuzaga kelishi kutilmoqda. Hozirda ham rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Raqamli iqtisodiyotning kelajagi haqida elektron tijorat ulushi kengayishi, kriptovalyutalar va markaziy bank raqamli pullari miqdori ortishi va raqamli tafovut kamayishi kabi qarashlar bor. Onlayn savdo hajmi ortishi, moliya tizimida ham raqamlashtirish kuchayishi va AI ko'proq sohalarda foydalana boshlanilishi kutilmoqda. Shuni aytish ham kerakki ma'lumotlar xavfsizligi va ish o'rinlarining qisqarishi kabi muammolariga hozirdan yechim izlanishi oqibatida ularning darajalari kelgusida pasayishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot hozirgi va kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sababi, bir qator iqtisodiy tomonlama mustahkam va rivojlangan davlatlar iqtisodida hozirning o'zida texnologiyalar, avtomatlashtirishning o'рни juda katta. Buni bir qancha misollar va raqamlar orqali yuqorida ko'rdik. Shu bilan bir qatorda, kelajakda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi texnologik innovatsiyalar, davlatlarning raqamli strategiyalari va kiberxavfsizlik choralariga bog'liq bo'lishini keltirilgan tadqiqotlar aniq ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company.

<https://archive.org/details/secondmachineage0000bryn>

2. Varian, H. (2018). Artificial Intelligence, Economics, and Industrial Organization. National Bureau of Economic Research.

https://www.nber.org/system/files/working_papers/w24839/w24839.pdf

3. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin.

<https://archive.org/details/blockchainrevolu0000taps>

4. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.

https://law.unimelb.edu.au/_data/assets/pdf_file/0005/3385454/Schwab-The_Fourth_Industrial_Revolution_Klaus_S.pdf

5. OECD (2021). Digital Economy Outlook 2021.

https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/05/oecd-digital-economy-outlook-2024-volume-1_d30a04c9/a1689dc5-en.pdf